FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil **DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a543**

UO‘K: 811.512.133

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQ TOVUSHLARINING TASNIFI MASALASI

ВОПРОС КЛАССИФИКАЦИИ ЗВУКОВ РЕЧИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

THE ISSUE OF CLASSIFICATION OF SPEECH SOUNDS IN UZBEK LINGUISTICS

Umarova Nargiza Rustamovna[1]
[1]Farg‘ona davlat universiteti, professor

Maxmudova Oygul Toxirjonovna[2]
[2]Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

O‘zbek tilshunosligida fonetik izlanishlar rus tilshunos olimlari tadqiqotlari ta’sirida olib borilganligi bois, juda ko‘p tahlillarda rus tili bilan bog‘liq fikrlar ustunligi seziladi.

Ma’lumki, o‘zbek tili fonetikasi dastlab V.Reshetov va Sh.Shoabduraxmonovlar hamkorligida yaratilgan. Ushbu ishda ular nutq tovushi va fonema munosabati, tovush o‘zgarishi, bo‘g‘in va urg‘u haqida ma’lumot berganlar. Ulardan keyin A.N.Kononov ham hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bag‘ishlangan ishida fonetikaga to‘xtalib, shu doirada ma’lumotlar keltirish bilan kifoyalangan. Mazkur tilshunoslar rus tilshunoslari bo‘lganligi tufayli rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlarni o‘zbek tiliga ham tatbiq etganlar. Fonetikani bu kabi tavsif etish o‘zbek tilshunoslariga ham xos. Bu, ayniqsa, o‘zbek tilida so‘z urg‘usining dinamik xarakterda ekanligini qayd etishda yaqqol ko‘zga tashlanadi [1,55-78; 2,78-96; 3,165;]. Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, M.Mirtojiyevning nuqtayi nazariga ko‘ra, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi kvantitativdir. Oliy o‘quv yurtlari uchun chiqarilgan o‘zbek tili darsliklarida berilgan tavsif yuqoridagilardan farq qilmaydi. Faqat H.Jamolxonov fonetikaning tarmoqlaridan yana biri intonatsiya ekanini va uning komponentlarini qayd etadi [3,170-173]. Lekin H.Jamolxonov shu bilangina chegaralanadi.

Аннотация

Поскольку фонетические исследования в узбекском языкознании проводились под влиянием исследований российских лингвистов, во многих анализах наблюдается преобладание мнений, относящихся к русскому языку.

Известно, что фонетика узбекского языка изначально была создана в сотрудничестве с В. Решетовым и Ш. Шоабдурахмановым. В этой работе они предоставили информацию о звуках речи и отношениях фонем, изменениях звуков, слогах и акцентах. После них А. Н. Кононов в своей работе по современному узбекскому литературному языку сосредоточился на фонетике и довольствовался предоставлением информации в этой области. В связи с тем, что эти лингвисты были русскими лингвистами, они применили к узбекскому языку некоторые фонетические законы русского языка. Такое описание фонетики характерно для узбекских лингвистов. Это особенно заметно, если отметить, что словесное ударение в узбекском языке носит динамический характер [1,55-78; 2,78-96; 3,165;]. Здесь следует отметить, что, по мнению М.Миртоджиева, словесное ударение в узбекском языке имеет количественный характер. Описание, данное в учебниках узбекского языка, изданных для высших учебных заведений, не отличается от приведенного выше. Лишь Х. Джамолханов отмечает, что другой отраслью фонетики является интонация и ее компоненты [3,170-173]. Но этим Х. Джамолханов ограничивается.

Abstract

Since the phonetic research in Uzbek linguistics was carried out under the influence of the researches of Russian linguists, in many analyzes there is a predominance of opinions related to the Russian language.

It is known that the phonetics of the Uzbek language was originally created in collaboration with V. Reshetov and Sh. Shoabdurakhmanov. In this work, they provided information about speech sounds and phoneme relationships, sound changes, syllables and accents. After them, A.N. Kononov, in his work on the modern Uzbek literary language, focused on phonetics and was content with providing information in this area. Due to the fact that these linguists were Russian linguists, they applied some phonetic laws of the Russian language to the Uzbek language. This description of phonetics is typical of Uzbek linguists. This is especially evident when noting that word stress in Uzbek is dynamic in nature [1,55-78; 2,78-96; 3,165;]. It should be noted here that according to M. Mirtojiyev's point of view, word stress in Uzbek is quantitative. The description given in the Uzbek language textbooks issued for higher educational institutions does not differ from the above. Only H. Jamolkhanov notes that another branch of phonetics is intonation and its components [3,170-173]. But H. Jamolkhanov is limited to this.

Kalit so‘zlar: *fonema, fon, fonologiya, nutq tovushi, unli va undosh tovushlar, portlovchi, sirg‘aluvchi.*

Ключевые слова: *фонема, фон, фонология, звук речи, гласные и согласные, взрывной звук, скольжение.*

Key words: *phoneme, background, phonology, speech sound, vowels and consonants, plosive, glide.*

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida ham nutq tovushlari tadqiqiga bag‘ishlangan asarlar ko‘p uchraydi. Ular turlicha mavzuda yozilgan. Quyidagi ikki maqola bittadan nutq tovushiga bag‘ishlangan. Jumladan, Sh.Sh.Shoabdurahmonov va D.Abdurahmonov hammuallifligida yozilgan maqolada e unlisining lablangan yo lablanmaganligi masalasi hal etilgan. Bu tovush o‘zbek tilining deyarli barcha shevalarida lablanmagan va uning o‘tmishi so‘g‘dlarga borib taqaladi. Buxoro-Samarqand o‘zbeklari shevasida e unlisining lablanganligi isbotlab berilgan. Ikkinchi maqolada affrikatlar haqida to‘xtalinib, ularga portlovchi-sirg‘aluvchi tovush sifatida qaraladi [4,8; 5]. Shu o‘rinda yana A.Mahmudovning ham tilda tovush tizimi, singarmonizm va urg‘uning o‘zaro munosabati haqidagi maqolasini qayd etish lozim. Maqolada unlilar varianti ortishida singarmonizmning ahamiyati ta’kidlanadi. Bu mavzuda yana ikkita yirik asar bo‘lib, biri A.Mahmudovga tegishli va unda o‘zbek tilidagi unlilar tizimi haqida so‘z yuritiladi [4,9; 6]. Ikkinchi maqola esa o‘zbek tilining Namangan shevasidagi nutq tovushlari tizimiga bag‘ishlangan [7].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fonetika mana shu tariqa nutq tovushlarini o‘rganishdan boshlangan. Lekin bu nutq tovushini fonemadan ajratib, alohida til hodisasi sifatida talqin etish degani emas. Ular aynan bir narsa bo‘lib, nutq tovushi asosida fonema shakllanadi. Ammo fonema fonetikada emas, fonologiyaning tadqiq obyekti hisoblanadi. Nutq tovushlari esa fonetikaning tekshirish obyektidir.

Artikulyatsiya o‘rinlari miqdori nutqni amalga oshiruvchi organlarning imkoniyatiga bog‘liq holda kelib chiqadi. Ya’ni nutq organlari vositasida yuzaga kelgan barcha artikulyatsiya o‘rinlari yaratgan nutq tovushlarini aniqlab chiqish mazkur sarlavha ostida tavsiflanadi. O‘zbek tili fonetikasi masalalari yuzasidan Sh.Almamatova, O.Boltayeva, K.Maxmudova, O.Yusupovalarning maqolalari hamda D.Nabiyeva, X.Zokirovalarning o‘quv uslubiy qo‘llanmasi va D.Abdullayevaning nomzodlik dissertatsiyasida ayrim mulohazatalab fikrlar uchraydi [8,624; 9,43; 10,180; 11,20; 12,38].

Professor A.Nurmonov ta’kidlaganiday, “nutqning ifoda tomonidan bo‘linishi va bunday bo‘linishning oxirgi nuqtasi tovush ekanligining e’tirof etilishi o‘zining uzoq tarixiga ega...[13,18]. Mana shu tarixiy jarayonda nutq bo‘linishining eng oxirgi nuqtasi bo‘lgan tovushlar o‘zbek tilida qancha borligini aniqlab chiqish uchun harakat qilinadi. Bunda, albatta, nutq tovushlarining artikulyatsion-akustik tomoni e’tiborga olinadi.

Nutq a’zolarida, nutq kechimida qo‘llashda asosan un va shovqin hosil bo‘ladi. Nutq tovushlari esa unli va undoshdan iborat deb qaraladi. Ilmiy manbalarda ular unli va undoshga ajratilar ekan, M.M.Mirtojiyev ularning tarkibiga e’tibor berishni lozim topadi. Olim nutq tovushlarini tarkibiga ko‘ra to‘rt ko‘rinishga ajratadi:

1) faqat undan iborat nutq tovushlari;
2) qisman shovqin aralashgan undan iborat nutq tovushlari;
3) qisman un aralashgan shovqindan iborat nutq tovushlari;
4) faqat shovqindan iborat nutq tovushlari [4,16].

Faqat undan iborat nutq tovushlari unlilar deb atalib, qolgan nutq tovushlari undoshlar hisoblanadi. Unlilar akustikasiga ko‘ra faqat undan iborat bo‘lgani holda, uning asosiy ton, oberton va rezonator tonlari bo‘ladi. Rezonator ton turli unli tovush tarkibida turlicha miqdorda kuzatiladi. Uning miqdori unli talaffuzidagi og‘izning ochilishiga qarab belgilanadi: keng unlilarda ko‘p, tor unlilarda kam qayd etiladi. Bu holat undoshlarda ham kuzatiladi. U sonantlarda, ayniqsa, burun sonantlarida, ortiq darajada hosil qilinib, jarangsiz undoshlarda hatto o‘zi ham uchramaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda hamma vaqt fonemalarni e’tiborda tutib, ular unlilar va undoshlar asosida tasnif qilinadi. Bu tasnifda nutq tovushlari nazarda tutilsa ham, ular unlilar va undoshlarga bo‘linadi. Unli va undoshlarda nutq tovushlarning ichki tasnif qilinishi nazarda tutilar ekan, albatta, olim bunda ularning har biriga alohida yondashadi.

Ayrim darsliklarda unlilar tovush paylarida hosil bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramasligi aytiladi [4,16; 1,58; 2,80]. Ular, haqiqatan ham, tovush paylari orqali hosil

bo‘ladi. Chunki u undan iborat bo‘lib, uning hosil bo‘lish o‘rni faqat tovush paylaridir. Ular agar boshqa to‘siqqa uchramay chiqqan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi mavjud unlilar bir-biridan farq qilmas edi. V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovning unlilar “og‘iz bo‘shlig‘ida shakllanadi” [4,16] degan fikrini e’tiborga olsak, un og‘iz bo‘shlig‘ida shakllanib, qandaydir biror unlini hosil qiladi. Bunda og‘iz bo‘shlig‘ining ochilish darajasida undagi biror organning muayyan holati ahamiyat kasb etadi. Masalan, og‘izning tor ochilishida til oldi va til orqa; o‘rta-keng ochilishida til oldi va til orqa; keng ochilishida til oldi va til orqa artikulyatsiya o‘rinlari mavjud. Ya’ni unlilar talaffuzida oltita artikulyatsiya o‘rni bo‘lib, ularda olti xil unli hosil qilinadi.

O‘rni kelganda shuni ham aytish kerakki, ayrim adabiyotlarda, og‘izning ochilishida lab ikki burchi bir oz torayadi, shunga ko‘ra o unlisi lablangan, deb ko‘rsatiladi [4,16]. Lekin bu o‘rinda asosiy jihat e’tibordan chetda qoldirilgan. Labning ikki cheti toraygani bilan lablangan unli talaffuzi uchun ular oralig‘ida bo‘shliq yuzaga keltirilmaydi.

Professor M.Mirtojiyev unlilar uchun o‘zbek tilida artikulyatsiya o‘rni o‘n bitta: og‘izning tor ochilishida til oldi ikkita, til orqa ikkita; o‘rta-keng ochilishida til oldi ikkita, til orqa bitta; keng ochilishida til oldi bitta, til orqa ikkita artikulyatsiya o‘rni borligini qayd etadi. Og‘izning keng ochilishida til orqa faqat bir artikulyatsiya o‘rniga egaligini keng o unlisining talaffuzida til orqa ko‘tarilmay, og‘iz bo‘shlig‘i ostiga tekis yoyiladi va bo‘g‘izdan chiqqan un til orqasiga urilib shakllanishi va bunda til oldida to‘siqning yo‘qligi (u til ostiga yoyilgan holda, ya’ni artikulyatsiya o‘rni shakllanmagan) bilan izohlaydi. Mavjud artikulyatsiya o‘rinlaridan faqat bittasi foydalanilmay qolganini qayd etadi [4,16; 5,33-34].

O‘zbek tiliga butunlay boshqa tizimga tegishli, boshqa oilaga mansub rus tili leksikasi XX asr boshlaridan faol ta’sir eta boshladi. U hozir o‘zbek tili leksik boyligining 26 foizdan ortiqrog‘ini tashkil qiladi. O‘zlashtirilgan leksika o‘ziga xos fonetikaga ega bo‘lmay iloji yo‘q. Uning tovushlari o‘zbek tilidagi tovushlarga anchagina o‘xshash bo‘lsa ham, farqli tomonlari ham yetarlicha bor. Olim buni quyidagi misollar bilan ko‘rsatadi: unlilari og‘izning tor ochilishdagi til oldi *i* va til o‘rta *ы,* shuningdek, til orqa lablangan *u,* o‘rta-keng ochilishidagi *e* va til orqa lablangan *o*; keng ochilishidagi til o‘rta *a* tovushlaridan iborat. Ammo bu o‘zlashgan leksikaga mansub unli tovushlar o‘zlashtirish kechimida o‘zbek tili uchun ayrim farqli artikulyatsiya o‘rinlarini yuzaga keltiradi. Ya’ni M.Mirtojiyev olib borgan eksperiment natijalariga ko‘ra, rus tilidagi tor *u* va *ы* unlilari o‘zbek tilidagi *i* va *e* unlilariga nisbatan o‘ta tor ekanligini rentgenogramma ham tasdiqlaydi. Buning ustiga, tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra rus tilidan o‘zlashgan *ы* bilan o‘zbek tilidagi *e* unlisi bir xil til orqa shaklida ifodalanadi. Rus tilidan o‘zlashgan lablangan *u* unlisi bilan o‘zbek tilida lablangan *u* unlisi bir xil til orqa unli ekanligi bo‘ldi. Til oldi o‘rta-keng *ye* unlisi ham o‘zbek tilining o‘z unlisi, ham rus tilidan o‘zlashgan so‘zlardagi unli ekanligi qayd etiladi. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarga mansub *o* unlisi o‘zbek tilidagi o‘rta-keng til orqa *o* unlisi artikulyatsiya o‘rnida emas, balki uning o‘rni sal oldinroqda ekanligi ma’lumdir. Shuning uchun uni til o‘rta artikulyatsiya o‘rnida deb qarashga to‘g‘ri keladi. O‘zlashgan so‘zlardagi til o‘rta keng *a* unlisi o‘zbek tiliga o‘zgarishsiz o‘zlashtirilgan.

Hozirgi o‘zbek tilida unli tovush tiplari miqdorini hisoblar ekanmiz, rus tilidan o‘zlashgan unlilarni ham e’tiborda tutishga to‘g‘ri keladi. Ulardagi til orqa tor *u* unlisi va til oldi o‘rta-keng *ye* unlisi o‘zbek tilidagi mavjud *ye* unlilari bilan bir xil bo‘lib, qolganlari uning tiplari miqdorini orttiradi. H.Ne’matov eski turkiy tilda 8 ta unli fonema mavjudligini qayd etadi [14,15]. M.Mirtojiyevning talqinicha, o‘zbek adabiy tilida 14 ta unli tovush bor va unli tovushlar og‘izning ochilishiga ko‘ra uch tipga bo‘linadi:

1) tor unlilar 6 ta;
2) o‘rta-keng unlilar 4 ta;
3) keng unlilar 4 ta.

Professor M.Mirtojiyev tilning yuqori ko‘tarilishidagi tor unlilarda til tanglayga juda yaqin kelib, tovush payida hosil bo‘lgan un til va tanglay o‘rtasidagi shu tor oraliqdan o‘tish natijasida nutq tovushi holatida shakllanishini, tilning o‘rta ko‘tarilishidagi unlilarda til tanglayga tomon pastki tish balandligida, ya’ni o‘rtacha balandlikda ko‘tarilib, tovush payida hosil bo‘lgan un til va tanglay o‘rtasidagi uncha tor bo‘lmagan oraliqdan o‘tib, nutq tovushi holatida shakllanishi o‘rta-keng unlilarni hosil qilishini, tilning past ko‘tarilishidagi unlilarda til pastki tish yuzasidan ham pastroq ko‘tarilib, tovush paylarida hosil bo‘lgan un til va tanglay oralig‘ida yuzaga kelgan keng bo‘shliqdan erkin o‘tishi orqali nutq tovushi holatida esa keng unlilar shakllanishini kuzatdi.

Olim bu doiradagi artikulyatsiyani juda aniq tavsiflab beradi, ba'zi o'zgarishli holatlarni izohlab boradi. *E* unlisi talaffuzida til orqa *a* unlisiga nisbatan og'iz keng ochilishi, tilning orqa ko'tarilishi bo'lmay*, u* ostiga keng yoyilishi va o'rtasi cho'kkan holga kelishi aytilgan edi. Agar bu unli lablangan holga keltiriladigan bo'lsa, og'izning lunj muskullari lab tomon tortilib, jag' tishlar orasiga botishi va uchiga tomon cho'zilgan til yuqori ko'tarilishi muqarrar. Natijada, og'iz bo'shlig'i o'rta - keng holga kelib koladi. Bu tovush deyarli til orqa *o* tovushiga o'xshab ketadi. Bunday unli esa o'zbek tilining Samarqand, Buxoro va Konimix shevalarida bor. Til orqa keng *e* unlisini lablangan deb ko'rsatgan tilshunoslardan M.Mirzayev, X.Ne'matov, J.Muxtorov hamda A.Abduazizovlar Buxoro, Samarqand shevasi vakillaridir. Ular o'z shevalari talaffuzini adabiy til me'yori bilan qorishtirib yuborganlar. Lekin ularga H.Jamolxonov ham beixtiyor ergashgan [4,56; 3,94].

NATIJA VA MUHOKAMA

M.Mirtojiyevning fikricha, tizimni to'ldirish uchun mos bo'lmagan tovushni sun'iy moslashtirish o'zini oqlamaydi. O'zbek adabiy tili tovushlari tizimi Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon kabi qarluq lahjasiga mansub shahar shevalariga asoslanadi. Til orqa keng *e* unlisining shu shevalardagi talaffuzi rentgenogramma va fotogrammada kuzatilishi ham uning lablanmaganligini ko'rsatadi. Bu shu fikrda bo'lganlarning mulohazalariga muvofiq keladi. Yana shuni ham aytish kerakki, tizimda unlilar faktlarning majburlab tiqishtirish asosida to'ldirilmaydi, balki fakt va hodisalardagi uyg'unlikni umumlashtirish orqali shakllantiriladi.

Professor M.Mirtojiyevning "O'zbek tili fonetikasi" kitobida undosh tovushlar akustik xususiyatiga ko'ra ikki tipga bo'linadi: sonantlar va konsonantlar.

Ma'lumki, sonantlar asosan undan iborat bo'lib, unga kam miqdorda shovqin aralashadi. Konsonant o'z ichida yana ikki tipga bo'linadi. Ular jaranglilar va jarangsizlardir. Jaranglilar tarkibiga kam miqdorda un aralashib, asosan shovqindan iborat bo'ladi. Jarangsizlar faqat shovqindan iborat bo'lib, tarkibiga mutlaqo un aralashmaydi.

XULOSA

Sonantlar tasnifi va tavsifiga M.Mirtojiyev quyidagicha yondashadi: sonantlar undosh tovushlar ichida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Faqat *r* tovushidan tashqari barcha konsonantlar uch nutq organidan iborat artikulyatsiya o'rniga ega. Bu artikulyatsiya o'rnidan faqat bir nutq organi un sirg'alishi o'rni bo'lib, ikki nutq organi un bosimi yo'lini to'sish vazifasini o'taydi. Shu boisdan bu undoshlar artikulyatsion usuliga ko'ra sirg'aluvchi-portlovchi undoshlar deb ham ataladi. Lekin bunday emas. Bu undoshlarda hech qanday portlash bo'lmaydi. Ularning artikulyatsion kechimi o'tgach, un yo'lini to'sib turgan nutq organlari orasi ochilmaydi va bunga talab ham bo'lmaydi. Agar sonant intervokal holatda bo'lsa, un yo'lini to'sib turgan nutq organlarining ochilishi tabiiydir.

Sonantlar sirg'alish o'rniga qarab ikki tipga bo'linadi: burun sonantlari va til yon sonanti. Burun sonantlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, un, albatta, burun bo'shlig'iga ham o'tib, o'z rezonator tonini hosil qiladi va o'ziga xos shakllanib, burun kataklaridan tashqariga sirg'aladi. Bu sonantlar o'zbek tilida *m, n, ng* kabilardan iboratligi holda, ular o'zaro rezonator ton hosil qilish masofasi, rezonator ton miqdori bilan farqlanadi.

M.Mirtojiyev o'zining eksperimental tahlillarida sonantlar yuzaga kelishida 13 imkoniyat borligi va o'zbek tilida ularning faqat 6 tasidangina foydalanilishini qayd etadi.

Boshqa hozirgi o'zbek tili darsliklaridan [15,182; 16,19] farqli o'laroq, M.Mirtojiyev sonorlarni 6 ta deb hisoblaydi. Olim **ŋ** va **ӈ** sonor tovushlarini bir-biridan farqlaydi. Bunda sonorlarning dialektal tabiatiga asoslanadi.

Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilshunosligida ko'plab zabardast fonetist olimlar bor va shu bilan birga ularning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan o'ziga xos qarashlari bor. Mazkur qarashlarning xilma-xilligi tilshunosligimizda fonetik sathning naqadar boy va murakkab ekanini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. (1970). Ўзбек тили. 3-нашр. – Т.: Ўқитувчи.
2. Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. (1975). Хозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр. – Т.: Ўқитувчи.
3. Жамолхонов Х. (2009). Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Т.: Фан.
4. Миртожиев М. (2013). Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан.

5. Махмудов А. (1983). Аффрикатлар. – Т.: Кибернетика.
6. Махмудов А. (1960). Гласные узбекского языка. – Т.: Фан.
7. Атамирзаева С. (1962). Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. – М.: АҚД.
8. Almamatova Sh. (2022). Fonetikani o'qitish muammolari // Oriental Renaissance.
9. Maxmudova K. (2022). Fonetik hodisalarning tildagi ahamiyati // International Journal of science and education.
10. Yusupova O. (2022). Unli tovushlar.//International coference on Developments in Education.
11. Nabiyeva D., Zokirova X. (2016). O‘zbek tili fonetikasi. – Andijon.
12. Абдуллаева Д. (1999). Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари. – Тошкент.
13. Нурмонов А. (2007). Профессор Миразиз Миртожиев – фонетист // Миразиз Миртожиев – ўзбек тилшунослиги жонкуяри. – Т.: Университет.
14. Неъматов Ҳ. (1992). Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи.
15. Нурмонов А. (2012). Танланган асарлар. 3-жилд. – Т.: Академнашр.
16. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek tili. – T.: Universitet.